



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Nilufar Djurayeva SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOYIY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI.....	5
2. Gulzona Taniyeva O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN.....	15
3. Hikmatjon Avezov O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.....	20
4. Iskandar Samadov XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI.....	27
5. Фируза Абдюсупова В ПОИСКАХ НЕИЗВЕДАННОГО: РУССКИЕ ЭКСПЕДИЦИИ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНЫЕ ПОХОДЫ В ПАМИРЕ (XIX ВЕК).....	34
6. Nasiba Narzullayeva SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA'LIM OLGAN O'ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG'ON QILINISHI.....	41
7. Istora Jo'rayeva XOTIN-QIZLAR MAVZUSINING YORITILISHIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	50
8. Muslima Makhmudovna Bazarova THE ACTIVITY OF SHELTERS IN UZBEKISTAN.....	55
9. Diyora Chorshanbiyeva YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI.....	60
10. G'unchaxon Baxodirovna Alimova O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLIISH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING S IFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR.....	65
11. Mohira Matnazarova KO'CHMANCHI CHORVADORLAR HAYOTINING YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI.....	71
12. Iroda Tishabayeva 1950–1970 YILLARDA O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	76



Nilufar Dalibayevna Djurayeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasini mudiri,
tarix fanlari nomzodi, professor

SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN- QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI

For citation: Nilufar D. Djuraeva. GOALS AND OBJECTIVES OF WOMEN'S ORGANIZATIONS IN THE SOCIAL AND ECONOMIC POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 6, pp.5-14

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15806060>

ANNOTATSIYA

Maqolada sovet hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida xotin-qizlar tashkilotlarining oldiga qo‘yilgan vazifalar va ulardan ko‘zlangan maqsad ilmiy tahlil etilgan. Ya’ni, xotin-qizlardan o‘z siyosatining xayrixohlarini tarbiyalashga harakat qilganligi, sovet tuzumi davrida ayollarning ijtimoiy hayotdagi ishtirok qat’iy chegaralar asosida, sovet hukumati ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilab berilganligi o‘rganilgan. Bu esa ayollar zimmasiga doim ham uddalay olmaydigan og‘ir mas’uliyat va vazifalarni yuklagani, ayniqsa, o‘zbek ayollariga tabiatan xos bo‘lgan oilaga sadoqat kabi xislatlardan kommunistik mafkura o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga intilgani manbalarga tayangan holda yoritib berilgan. O‘zbek ayollari o‘zlarining mehnatsevarligi, shijoati va qobiliyatlari tufayli o‘z iqtidorlarini namoyon etib, jamiyatda faol ishtirok etib bordi. Biroq bu ijtimoiy faollik asosan, ularning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki bilan belgilab borildi.

Kalit so‘zlar: sovet hokimiyati, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, xotin-qizlar tashkilotlari, vazifalar, sovet tuzumi, ayollar, ijtimoiy hayot, kommunistik mafkura.

Нилуфар Далибаевна Джураева,
Узбекский государственный университет мировых языков
заведующий кафедрой История Узбекистана,
кандидат исторических наук, профессор

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ЖЕНСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКЕ СОВЕТСКОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА

АННОТАЦИЯ

В статье научно анализируются задачи и цели, поставленные перед женскими организациями в социально-экономической политике советского правительства. То есть было изучено, что женщины пытались воспитывать сторонников своей политики, и что в советский период участие женщин в общественной жизни определялось на основе строгих

ограничений, исходя из потребностей советского правительства. Это, основываясь на источниках, подчеркивает тот факт, что на женщин возлагались тяжелые обязанности и задачи, с которыми они не всегда могли справиться, и что коммунистическая идеология стремилась эксплуатировать качества, присущие узбекским женщинам, такие как преданность семье, в своих собственных интересах. Благодаря трудолюбию, целеустремленности и способностям узбекские женщины продемонстрировали свои таланты и активно участвовали в жизни общества. Однако эта общественная активность в основном определялась их деятельностью в общественном производстве.

Ключевые слова: советская власть, социально-экономическая политика, женские организации, задачи, советский строй, женщины, общественная жизнь, коммунистическая идеология.

Nilufar D. Djuraeva,

Uzbekistan State University of World Languages
Head of the Department of History of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences, Professor

GOALS AND OBJECTIVES OF WOMEN'S ORGANIZATIONS IN THE SOCIAL AND ECONOMIC POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT

ABSTRACT

The article scientifically analyzes the tasks and goals set before women's organizations in the socio-economic policy of the Soviet government. That is, it was studied that women tried to educate supporters of their policies, and that during the Soviet period, women's participation in public life was determined on the basis of strict restrictions, based on the needs of the Soviet government. This, based on sources, emphasizes the fact that women were assigned heavy responsibilities and tasks that they could not always cope with, and that communist ideology sought to exploit the qualities inherent in Uzbek women, such as devotion to family, for its own interests. Thanks to their hard work, dedication and abilities, Uzbek women demonstrated their talents and actively participated in the life of society. However, this social activity was mainly determined by their activities in social production.

Index Terms: soviet power, socio-economic policy, women's organizations, tasks, Soviet system, women, social life, communist ideology.

Dolzarbligi:

Ma'lumki, xotin-qizlarga munosabat masalasi turli davrlarda ijtimoiy tuzum nuqtai nazaridan, turli sinflarning manfaatlaridan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohadagi muammolarini yechishga bo'lgan intilishidan kelib chiqib hal qilingan. Xususan, qadimda ayollarga erkaklarning shaxsiy mulki sifatida qaralgan bo'lsa, o'rta asrlarda ayollarning fuqarolik va shaxsiy huquqlari cheklangan edi. Taraqqiyotning keyingi davri esa, xotin-qizlarga munosabatda ijobiy va salbiy yondoshuvlarga sabab bo'lgan. Sanoatning rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonining tezlashuvi arzon ishchi kuchiga ehtiyojni kuchaytirdi, natijada, ayollar arzon ishchi kuchi sifatida ishlab chiqarishda qatnasha boshladi. Bu holat ayollarning erkak kishi bilan tengligi g'oyasining vujudga kelishiga zamin yaratdi. 1781-yili Olimpiya de Guj "Fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasi"ni ishlab chiqdi hamda ayollarning erkin fikrlashi va o'z fikrini erkin bayon qilishi huquqiga ega ekanligini e'lon qildi. 1789-yilda fransuz faylasufi J.A.Kondori "Ayollarga fuqarolik huquqini berish haqida" maqolasini chop etdi. Va ayollarga jamiyat a'zosi ekanligini ta'kidlab, ular millatning bir qismi ekanligini, ularga munosabatni tubdan o'zgartirish lozimligini ta'kidladi[1]. Lekin, shu bilan birga ayol-ona va ayol-ishchi o'rtasidagi ziddiyat kuchayib bordi. Ayniqsa, bu muammo Sharq ayollari hayoti tarixida yaqqol ko'rindi. Chunki, XX asr boshlarida sovetlar hokimiyati asrlar davomida islom dini shariati ko'rsatmalari asosiga qurilgan o'zbek xotin-qizlarining hayotini o'zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, ko'plab huquqiy

me'yorlar asosida kuchli mafkuraviy-siyosiy institutlari orqali keskin o'zgartirish yo'lidan bordi. Jumladan, sovet mustabid tuzumining xotin-qizlar masalasidagi ziddiyatli siyosati asosida o'z mohiyatiga ko'ra, xotin-qizlarni "ozod qilish", "zamonviylashtirish" shiori ostida milliy, diniy, tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda an'alariga qarshi kurash olib bordi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning siyosiy va huquqiy ongini cheklash, o'z erki va ozodligi uchun kurashish g'oyalaridan chalg'itish, ularga xos bo'lgan vatanparvarlik, mustaqillik uchun kurash tuyg'ularini so'ndirishga qaratilgan targ'ibot vositalaridan keng foydalanildi.

Ikkinchidan esa, o'zbek xotin-qizlarini "ozodlikka chiqarish" shiori ostida xalq xo'jaligi muammolarini hal qilish uchun yangi mehnat resurslari bo'lgan ishchi kuchlarini vujudga keltirish maqsadida ularni ishlab chiqarishga jalb etish tadbirlari amalga oshirildi. Biroq, bu jarayonda ularni ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb etishda jismoniy imkoniyatlari e'tiborga olinmadi.

Metodlar:

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda, sovet hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida xotin-qizlar tashkilotlarining maqsad-vazifalari ilmiy tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalari:

Mahalliy xotin-qizlarni ishlab chiqarishga keng jalb etish, avvalo mustabid tuzumning iqtisodiy bazasini mustahkamlash uchun zarur edi. Eng avvalo, sotsializmning bosh maqsadi o'z iqtisodini rivojlantirish ekan, shu maqsadda xotin-qizlardan ishchi kuchi sifatida foydalanib, ularni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etdi [2].

1920-yil may oyida bo'lib o'tgan Turkiston ishchi ayollarining Birinchi o'lka s'yezdida ayollar iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashdagi bosh vazifa sifatida ularni ijtimoiy mehnatga jalb qilishga da'vat etildi[3].

Xotin-qizlar dastlab hunarmandlik kooperatsiyasiga jalb qilingan. Xotin-qizlar klublarida ayollar uchun maxsus xonalar ochilib, ular bunday joylarda do'ppi va choyshablar tikish bilan band bo'lishgan. Keyinchalik hunarmandchilik kooperatsiyasi tarkibida maxsus ayollar artellari tashkil etildi. Shu tariqa mahalliy xotin-qizlar kooperatsiyalarga birlashtirildi. 1925-yil fevraldagi O'zbekiston KP I s'yezdi kasb-hunarmandchilik kooperatsiyalariga e'tiborni kuchaytirish lozim, deb topdi[4]. Hunarmandchilik kooperatsiyalari mahalliy xotin-qizlarni fabrikalarga jalb qilishda o'tish bosqichini bajargan[5].

Kooperatsiya masalasiga faqat ijobiy baho berilishi ham jiddiy xatolik bo'lar edi. Kooperatsiyaga yalpi jamoalashtirishning boshlang'ich bo'g'ini sifatida baho berildi, ular haqidagi tushuncha bir-biridan keskin farqlanmadi. Kooperatsiyalar yengil sanoatga taalluqli bo'lib, ular shaharlardagina mavjud edi. 1925-yilda kooperatsiyalardagi xotin-qizlar soni 500 ta bo'lgan bo'lsa, 1926-yilda ularning soni 3,5 mingtaga yetdi[6]. Xotin-qizlarni kooperatsiyalarga jalb qilish chuqur o'ylab ishlab chiqilgan tadbir bo'lib, "xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilish, umumiy mehnatga o'rgatish orqali nafaqat ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, balki yangi dunyoqarashini shakllantirishda ham asosiy omil bo'ladi", deb hisoblandi[7].

1926-yili O'zbekistonda 16 ta yirik ayollar artellari bo'lib, ularda 814 nafar mahalliy xotin-qizlar mehnat qilishgan. Ayollar mehnatlari evaziga maosh olish imkoniyatiga ega bo'lishgan[8]. 1926-yil 1-oktyabrdan 1929-yilgacha artellarning soni 16 tadan 50 taga, ulardagi xotin-qizlar miqdori esa 814 tadan 4258 taga yetdi. 1930-yili respublika hunarmandchilik kooperatsiyasining 50 dan ortiq artellarida 5000 nafardan ko'proq mahalliy ayollar ishlashgan[9]. Ularning ko'pchiligi tikuvchilik korxonalarida mehnat qilishgan.

Xotin-qizlar yirik sanoat korxonalariga ham jalb etila boshlangan. 20-yillarning ikkinchi yarmidan sovet hokimiyati o'zining moddiy-iqtisodiy bazasini mustahkamlash zaruriyatidan kelib chiqib, paranjidan ozod bo'lgan xotin-qizlarni ishlab chiqarishning barcha sohalariga faol jalb qilishni istiqboliy vazifa etib belgiladi. Shuning uchun unga xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi omil sifatida qaraldi. Shu maqsadda mahalliy xotin-qiz kadrlardan ishchilar sinfini to'ldirishga kirishildi[10].

1925-yil 22-iyunda RKP(b) MK Tashkiliy byurosining "Partiyaning Sovet Sharqi xotin-qizlari o'rtasidagi ishlar bo'yicha vazifalari haqida"gi qarorida mahalliy xotin-qizlarni ijtimoiy

ishlab chiqarishga jalb qilishda xotin-qizlar klubi muhim tayanch vazifasini bajarishi lozimligi ta'kidlandi[11]. Shuning uchun xotin-qizlar klubiga alohida e'tibor qaratildi.

1925-yil iyundagi RKP(b) MQ Tashkiliy byurosining "Sovet Sharqi xotin-qizlari o'rtasidagi ishlar bo'yicha vazifalar haqida"gi qaroriga muvofiq, sovet hukumatining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida mahalliy millat xotin-qizlari sanoat ishlab chiqarishiga keng jalb etila boshlandi[12]. Sovet hukumatining sanoatlashtirish siyosatini amalga tatbiq etish, bunda xotin-qizlardan asosiy arzon ishchi kuchi maqsadida foydalanish uchun 1925-yil 4-iyunda O'zKP(b) MQ va O'zSSR Mehnat Xalq komissarligi tarkibida xotin-qizlar mehnatini o'rganuvchi markaziy Komissiya tuzildi. Markaziy Komissiyaning sanoat ishlab chiqarishidagi xotin-qizlar mehnatini o'rganishi natijasida respublika bo'yicha 1925-yilda ishchilarning 4680 tasi (1600 tasi o'zbek), ya'ni 9,7%ini ayollar tashkil etgan, shulardan 125 tasi, ya'ni 0,2%i balog'atga yetmagan qizlardan iborat edi[13]. Xotin-qizlarning sanoat ishlab chiqarishidagi bandlik darajasi ayniqsa, Toshkent viloyatida yuqori bo'lgan. Marg'ilon ip yigirish fabrikasida 1924-yilida 12 ta o'zbek ayol mehnat qilgan bo'lsa, 1925-yilga kelib, bu raqam 300 taga yetdi[14]. 1928-yilda xotin-qizlar xalq xo'jaligida band bo'lgan aholining 17 foizdan ko'prog'ini tashkil etgan[15].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayollarni yirik sanoat korxonalariga jalb etish jarayonida aksariyat hollarda ularning jismoniy imkoniyatlari e'tiborga olinmagan holda, og'ir vazifalarga jalb etilgan. Natijada, xotin-qizlarning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Kolxozlar va sovxozlar tashkil etilganidan so'ng, ayollarni ularga mos bo'lmagan kasb – traktorchilikka o'rgatish avj oldi. Dehqon ayollarni traktor bilan ishlashga majburlash harakati o'zbek xalqining milliy xususiyatlariga umuman zid bo'lgani holda yangi ayollar qatlamini, ya'ni erkaklar bilan teng mehnat qilishga shay erkakshoda ayollar qatlamini yuzaga keltirdi va bu jarayon ayollarni og'ir qo'l mehnatidan xalos qilish deb ataldi. 1931-yili dastlabki traktorchi dehqon ayollar dalada mehnat qila boshladi[16]. Bahorgi mavsumda mehnat qilgan 30 nafar traktorchi ayolning 13 nafari yig'im-terim mavsumidan so'ng belgilangan rejani "ortig'i" bilan bajargani uchun mukofotlangan[17]. 1938-yilda traktorchilar tayyorlovchi 4-5 oylik kurslarga dastlabki 6710 kishi qabul qilingan. Shundan, 3110 nafari xotin-qizlar edi[18]. Markaz qaror bilan 100 ming traktorchi xotin-qiz tayyorlashga kirishildi. Buning uchun xotin-qizlar ishlab chiqarishdan ajralmagan holda mexanizatorlik kurslariga jalb qilindi. Bu yerda ayollar organizmining o'ziga xos nozik xususiyatlari inobatga olinmay, oldindan belgilangan aniq me'yorlarni bajarishga safarbar qilingan. Birgina 1939-yilda 2500 nafar xotin-qizlar traktorchu tayyorlash kurslariga majburan jalb qilingan. Lekin ularning aksariyati bu kasbda ishlamagan.

Xotin-qizlarning daladagi mehnatini tashkil qilish vazifasini 1933-yil yanvarda VKP(b) MQ qarori bilan tashkil etilgan MTS siyosiy bo'limining xotin-qizlar bilan ish olib boruvchi tashkilotchilari o'z zimmasiga oldi. MTS siyosiy bo'limi xodimlarining dehqon ayollar o'rtasida olib borgan targ'ibot-tashviqot ishlari natijasida 1933-yili respublika bo'yicha 32711 xotin-qizlar brigadalari tashkil qilindi[19]. Xususan, 15 yoshli M.Azizova Samarqand MTSda traktor brigadasini muvaffaqiyatli boshqargan. MTS Siyosiy bo'limi a'zolaridan T.Shodiyeva, J.Obidova va T.Rustambekova kabilar eng faollardan bo'lib, o'zlarining tashkilotchilik qobiliyati bilan qishloq xotin-qizlari o'rtasida dala mehnatini tashkil etishda sidqidildan jonbozlik ko'rsatdilar. Chunki ular "kommunizm g'oyalari"ga samimiy ishongan edilar. Biroq, mazkur ayollar shijoatkorona faoliyati uchun sovetlar tomonidan rag'batlantirilish o'rniga asossiz qatag'on siyosati qurboni bo'ldilar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sovetlar mahalliy millat ayollaridan partiya saflarini to'ldirib, o'z tarafdorlari sonining ortishiga erishdilar. Bunga o'zbek ayollarining qalbidagi vatanparvarlik, shijoat, tashabbuskorlik kabi his-tuyg'ular ham sabab bo'lgan. Chunki, ular socialistik g'oyalarni xalq manfaatlariga mos tushadi, deb ishonganlar.

30-yillarga kelib, "xotin-qizlar masalasining hal bo'lganligi" haqidagi g'ayriilmiy xulosa natijasida xotin-qizlar bo'limi faoliyati VKP(b) MQning qarori bilan tugatildi[20]. Qarorda xotin-qizlar bo'limlarining vazifalari firqa qo'mitasi va uning bo'limlariga o'tganligi ta'kidlanib, maxsus sektorga aylantirildi[21]. Sektorlar zimmasiga sovet hukumati va kommunistik partiya tomonidan "xotin-qizlar masalasining hal bo'lganligi" haqidagi xulosani ilmiy-amaliy jihatdan mustahkamlash

vazifasi yuklatildi. 1930-yili “Kommunistka” va 1934-yili “Yangi yo‘l” jurnallarini nashr etish to‘xtatildi. Xotin-qizlar o‘rtasida olib boriladigan butun ishlarning mas‘uliyati Mehnat va turmushni yaxshilash Komissiyalari zimmasiga o‘tdi. Komissiya tarkibida respublika bo‘yicha 100 dan ortiq a‘zo bo‘lib, ular komissiya zimmasidagi katta hajmdagi ishlarni bajarish imkoniyatidan yiroq edi. Shuning uchun komissiyalar 1930-yil may oyida ittifoq respublika, viloyat, shahar va joylardagi ijroiya qo‘mitalariga aylantirildi va 1932-yilda o‘z vazifasini bajarib bo‘lgan organ sifatida tugatildi[22]. Aslida bu jarayonga sabab, sovet hukumati va kommunistik partiyaning xotin-qizlarni “iqtisodiy ozodlikka chiqarish” shiori ostida ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish, ular mehnatidan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish bilan jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylantirib, o‘z maqsadiga erishishida hamda ijtimoiy-siyosiy faolligi oshib borgan ayollarning o‘z haq-huquqlari uchun kurashib, mustabid tuzum tomonidan o‘zlariga nisbatan olib borilayotgan siyosatdan norozilikning kuchayib borishida edi.

Ma‘lumki, Ikkinchi jahon urushi yillarida xotin-qizlarning traktorlarni egallashi obyektiv zaruriyatga aylangan edi. 1941-yil 5-iyulda Toshkent shahrida 15 ming ayol ishtirokida bo‘lib o‘tgan mitingda respublikaning barcha ayollariga fashizmga qarshi urushda vatan himoyasi uchun stanoklar, traktor va kombaynlarda, kolxoz dalalarida erkaklarning o‘rnini bosishga qaratilgan murojaatlar qilindi. 1941-yilning 1-sentyabrida ishchi va xizmatchilar tarkibida ayollar ulushi 41,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1942-yilga kelib bu ko‘rsatkich 49 foizni, 1943-yilda esa 53 foizni tashkil etdi[23].

VKP(b) Markaziy Komiteti 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan 1942-yili qabul qilgan qarorida barcha partiya tashkilotlariga xotin-qizlarning otalari, erlari va aka-ukalari frontda Vatanni himoya qilayotgan paytda shaharda ham, qishloqda ham birorta ayol ijtimoiy ishlab chiqarishdan chetda turmasligi kerakligi uqtirib o‘tildi[24]. Shuningek, xotin-qizlarning front ortidagi mehnat faoliyatini kuchaytirish, ya‘ni xalq xo‘jaligining barcha sohalarida erkaklar o‘rnini egallashga da‘vat qilindi. Bu boradagi chora-tadbirlarni jadallashtirish maqsadida VKP (b) Markaziy Komitetining 1943-yil 22-yanvardagi “Harbiy xizmatchilarning oilalariga yordam ko‘rsatish bo‘yicha sovet organlari va mahalliy partiya tashkilotlari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 1943-yilning may oyidan boshlab respublika partiya qo‘mitalari qoshida xotin-qizlar Sovetlari faoliyati tashkil etildi. Xotin-qizlar sovetlariga viloyat partiya qo‘mitalarida obkom kotiblarining o‘rinbosarlari, shahar va tuman partiya qo‘mitalarida xotin-qizlar ishlari buyicha kotiblar rahbarlik qildilar. Butun respublikada bu sohaga mas‘ul sifatida viloyat partiya qo‘mitalarida 10 ta kotib yordamchisi, shaqar partiya qo‘mitalarida 13, shahar tarkibidagi tuman partiya qo‘mitalarida 11, qishloq tuman partiya qo‘mitalarida 133 kotib tayinlangan edi[25].

Yangi tashkil toptan bu tashkilotlarning vazifalari quyidagicha belgilangandi:

- a) xotin-qizlar o‘rtasida partiyaviy-siyosiy ya‘ni mafkuraviy hamda ommaviy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish;
- b) xotin-qizlarning front va frontortini har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan mehnatini nashkil etish;
- c) jangchilarning oilalariga zarur bo‘lgan yordamni tashkil etishga ko‘maklashish shular jumlasidandir.

O‘zbekistonning barcha partiya organlarida xotin-qizlar bilan ishlash bo‘limlari tashkil etildi. O‘zbekiston KP MQda mudir, uning o‘rinbosari va 5 nafar instruktor faoliyat yuritgan bo‘lsa, viloyat, shahar va tuman partiya qo‘mitalari bo‘limlari mudirlar tomonidan boshqarilgan. Viloyat partiya qo‘mitasining bo‘lim apparatida 2 tadan, qolgan viloyat, shahar va qishloq okrug qo‘mitalarida 1 nafar instruktor, shahar okrug partiya qo‘mitalarida esa bo‘lim apparati birgina mudirdan iborat bo‘lgan. Bo‘lim faoliyatidagi mafkuraviy maqsad-vazifalardan kelib chiqqan holda, viloyat partiya qo‘mitalaridagi xotin-qizlar bilan ishlash bo‘limlariga Butunittifoq KP (b) MQ qoshidagi Oliy partiya maktabi hamda O‘zbekiston KP MQ huzuridagi partiya maktabini bitiruvchilari jalb etilgan.

Xotin-qizlar bo‘limlari fashizmga qarshi urush yillarida ayollar mehnatini tashkil qilish, ularni iqtidorlariga yarasha mehnat uchastkalariga yo‘naltirish, ayollarga madaniy-maishiy xizmat

ko'rsatishni yaxshilash va yashash sharoitlarini g'amxo'rlik bilan kuzatib borishdek eng hayotiy vazifalarni amalga oshirishdi. Toshkent shahar va tuman partiya qo'mitalari xotin-qizlarining ko'magi bilan Toshkent shahrida 1943-yil iyun oyidan 1944-yilning may oyiga qadar ishlab chiqarish korxonalariga 15270 nafar xotin-qiz ishga joylashtirilgan va ulardan 700 nafari o'qishga yuborilgan[26; 27]. Xotin-qizlar bo'limlari frontga ketganlarning oilalari, shuningdek, uy bekalarini ishga joylashtirishda yaxshi tashabbus ko'rsatdilar. 1944-yilning o'zidagina Toshkent, Buxoro va Samarqand viloyatlarida 35000 xotin-qiz ishga joylashtirilib, ulardan 26000 nafari sanoat korxonalariga yuborilgan edilar[28]. O'zbek xotin-qizlari o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirishda 1943-yildan boshlab partiya komitetlarining xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha bo'limlari(jenotdel)ning tiklanishi muhim rol o'ynadi. Mazkur bo'limlarning tavsiya va ko'maklari bilan korxonalar, kolxoz va sovxozlar hamda MTSlarda xotin-qizlar bo'limlari, targ'ibot jamoalari (agitkollektiv) tashkil etildi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda partiya faollari bo'lgan yetakchi ayollar jonbozlik ko'rsatdilar. Shuningdek, O'zKP(b) MQning ko'rsatmasi bilan 1943-yildan e'tiboran kolxozlarda xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha rais o'rinbosarlari tayinlana boshladi. Ular qishloqda xotin-qizlarni paxta va galla mahsulotlari yetishtirish, chorva mollari parvarishini yaxshi yo'lga qo'yish ishlarini jonlantirishga safarbar etish bilan faol shugullandilar. Partiya tashkilotlarining rahbarligida xotin-sizlar o'rtasida g'oyaviy, siyosiy-tarbiyaviy ishlarining saviyasi ham izchil ko'tarilib borildi. Bu esa, xotin-qizlar tashkilotlarining sovet davlatining siyosiy maqsadlariga xizmat qilgani va ularga sovetlar tomonidan jamiyatning ishlab chiqarish vositasi sifatida e'tiborda bo'lganidan dalolat beradi.

O'zbekiston SSRning to'rt viloyati (Samarqand, Buxoro, Namangan va Xorazm viloyatlarida) va Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasida kolxoz raislarining o'rinbosarlari lavozimiga 3,5 ming xotin-qiz tayin etildi[29]. Shuningdek, Andijon viloyatida 1943-yilda xotin-qizlardan 163 kishi rahbarlik ishlariga jalb qilingan edi. Ularning aksariyati kolxoz boshqaruv(pravleniye)larining a'zolari, brigada, zveno boshliqlari, ferma mudirlari edilar. 1945-yilning boshlarida xotin-qizlardan yana 9 kishi kolxoz raisligiga tayinlangan[30]. Namangan viloyatida 1944-yilning o'rtalarida bu lavozimda 478 ayol ishlagan, 1945-yilning 1-yanvariga kelib bu raqam 690 ga yetgan. Andijon viloyatida esa 1945-yilning boshlarida pravleniye raisi o'rinbosarlari lavozimida 401 xotin-qiz ishlagan[31].

Xotin-qizlar bo'limlari tashabbusi bilan kolxozlarda ayollarning urush sharoitidagi vazifalariga bag'ishlangan xotin-qizlar kengashlari, tumanlarda esa, konferensiyalar o'tkazilgan. Jumladan, 1943-yil iyul-avgust oylarida Farg'ona viloyatining shahar va tumanlarida xotin-qizlarning urush kunlarida jamiyat hayotidagi roliga bag'ishlangan slyoti bo'lib o'tgan. 1943-yil oktyabr oyida Farg'onada xotin-qizlar bo'limi xodimlarining viloyatlararo yig'ilishi bo'lgan. 1943-yilning avgust-sentyabr oylarida Qoraqalpog'istonning barcha kolxoz va tumanlarida bo'lib o'tgan kengash va konferensiyalarda jami 20538 nafar xotin-qiz ishtirok etgan. Ularda urush sharoitida xotin-qizlar bo'limlari oldida turgan dolzarb vazifalar, asosan ayollarni ishlab chiqarishga jalb etish masalalari muhokama etilgan. Chunki, ayollar va o'smirlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etmay turib, frontga ketgan erkak ishchi kuchlari o'rnini to'ldirib bo'lmas edi.

O'zbekiston KP MQ Byurosining 1948-yil 8-avgustdagi qarori respublika partiya organlari uchun xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatma bo'lib hizmat qildi. Mazkur qaror xotin-qizlar bilan ishlovchi bo'limlar faoliyatini jadallashtirdi. Qator korxonalar, kolxoz va sovxozlarda, shuningdek, mashina-traktor stansiyalarida xotin-qizlar kengashlari faoliyatiga yetakchi ayollar jalb etildi.

Xotin-qizlar bilan ishlash bo'limlari tomonidan o'tkazilgan xotin-qizlar faollarining yig'ilishlari, konferensiya va slyotlarda ayollarning siyosiy va ishlab chiqarish faolligini oshirish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash masalalari muhokama etib borildi. Shuningdek, ayollar va bolalar salomatligini muhofaza qilish masalalariga e'tibor qaratilib, qishloqlarda akusherlik xizmatini kuchaytirish va bolalar salomatligini asrash masalalari bo'yicha ikki marta akusher-ginekolog va pediatrlarning qurultoylari o'tkazildi.

Deputat ayollarning g'oyaviy-siyosiy va umumiy ma'rifiy saviyasini oshirish maqsadida Toshkent shahrida SSSR Oliy Soveti va O'zbekiston SSR Oliy Soveti deputatlari uchun bir yillik

kurslar tashkil etilgan. Viloyat markazlarida esa mahalliy Kengashlarning ayol deputatlari uchun treninglar tashkil etilgan. Xotin-qizlar bilan ishlash bo‘limlari tashabbusi bilan respublikaning eng chekka viloyatlaridan o‘zbek qizlari Toshkent shahridagi oliy o‘quv yurtlari va texnikumlariga o‘qishga jalb etilgan. Manbalarda mazkur o‘quvlarning tashkil etilishiga sabab sifatida xotin-qizlar kengashlaridagi yetakchi ayollarining ishbilarmonlik malakasi, g‘oyaviy-siyosiy va madaniy yuksalish darajasidan qoniqish hosil qilinmagani va ularning ma‘ruzalar o‘qiy olmasligi haqidagi fikrlar uchraydi. Xususan, “dolzarb masalalarni qo‘yishda tashabbuskorlik va ularni hal etishda prinsipiiallik, boshlagan chora-tadbirlarni yakunlashda zarur qat‘iyligni ko‘rsata olmasligi, ayollarga nisbatan “o‘tmish qoldiqlari”ga qarshi kurashish masalalarini fundamental darajaga ko‘tara olmasligi, ayrim hollarda viloyat, shahar va tuman partiya qo‘mitalari kotiblari xotin-qizlar o‘rtasida ish olib boruvchi bo‘limlarga o‘z faoliyatida zarur yordam ko‘rsatmayotganligi” shular jumlasidandir.

Shuning uchun ham bu borada xotin-qizlar bo‘limlari uchun kadrlarni jiddiy tanlash, ularning malakasi, g‘oyaviy-siyosiy va madaniy saviyasini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Urushdan keyingi tiklanish yillarda respublika xotin-qizlari xalq xo‘jaligining barcha sohalarida faollik bilan mehnat qilishida 1956-yilda sovet xotin-qizlari qo‘mitasiga aylantirilgan 1943-yildagi partiya komitetlari qoshidagi xotin-qizlar sovetlarining ijtimoiy faoliyati muhim rol o‘ynadi. Mazkur tashkilotlar o‘z faoliyatini kommunistik partiyaning rahbarligi va nazorati ostida amalga oshirgan. Sovet ayollari qo‘mitasi vertikal tuzilmalariga ega bo‘lib, partiya-ma‘muriy tizimining sof mahsuli edi. Ayollar tashkilotlari urushdan keyingi besh yilliklarda xotin-qizlar orasida ularning jismoniy zo‘riqlashlariga sabab bo‘lgan “sotsialistik musobaqa”bozliklarni kuchaytirish uchun keng targ‘ibot ishlarini olib borishgan. Shuningdek, Stalin tomonidan mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatiga ko‘ra non, metall va yoqilg‘i bilan bir qatorga qo‘ygan paxtadan yuqori hosil olgani uchun 13 nafar ayol yuqori davlat mukofoti “Sotsialistik mehnat qahramoni unvoniga sazovar bo‘lishgan. Ular orasida Z.Mujalova, M.Miliyeva, Z.Xushimova, M.To‘ychiyeva kabi kolxozchi-ayollarni misol keltirish mumkin.

Shuningdek, 1951-1952-yillardan Toshkent tekstil kombinatida faoliyat yuritgan Maksumova, Azizova, Bahodirova kabi ayollar 64 ta mashina-stanokka xizmat ko‘rsatib, besh yillik rejani muddatidan oldin bajarishga muvaffaq bo‘lishgan. Qand lavlagidan yuqori hosil olishga erishgan M.Ubaydullayeva yuksak davlat mukofotiga munosib deb topilgan.

Marg‘ilon shoyi kombinati to‘quvchisi I.Akramova 1948-yilda besh yillik rejani muddatidan oldin bajarib, 1953-yil hisobidan mehnat qilgan. L.Irbo‘tayeva kabi dehqon ayollar esa gektaridan 102,6 sentner paxta terib, jismoniy imkoniyatlarini zo‘riqtirishgan. Pillachilik sohasida ham buxorolik pillakor X.Tishayeva 1950-yilda ipak qurti boqish muddatini ikki baravar qisqartirishga erishib, har bir qutidan 86 kilogrammdan yuqori pilla hosilini olgan.

Fashizmga qarshi urush yillarida vayron bo‘lgan xalq xo‘jaligini qayta tiklashda ayollar faol ishtirok etib, qator tarmoqlar bo‘yicha hatto yillik rejalarini ortig‘i bilan bajardilar. Qaror qabul qilish sohasi mustasno bo‘lgani holda, barcha ijtimoiy ko‘rsatkichlar bajarildi. Aytish mumkinki, bolsheviklar tomonidan o‘ylab topilgan ayollar muammosi hal etilib, ishchilar va mehnatkash ayollar armiyasi tashkil topdi. 1960-yillarning o‘rtalariga kelib statistik gender tizimini rejali qurishning dastlabki natijalari allaqachon namoyon bo‘lgan edi. Rivojlanmagan ijtimoiy sharoitda ya‘ni, tug‘ilishning pasayishi bilan bog‘liq vaziyatda “ikki tomonlama yuk” ayollar zimmasiga yuklanib, milliy iqtisodiyotda gender segregatsiyasi yuzaga kelgan edi.

XX asrning 70-yillarida sovet tuzumining ijtimoiy va iqtisodiy siyosati doirasida xotin-qizlarning jamiyatdagi roli sezilarli darajada o‘zgardi. Sovet tuzumining “ayollarni ozod qilish” g‘oyasi 20-yillardan boshlangan bo‘lsa-da, 70-yillarga kelib bu jarayon yanada mustahkamlandi va tizimli tus oldi. 70-yillarda O‘zbekiston SSRda ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki sezilarli darajada oshib, ishchi kuchining qariyb 40% ini tashkil qildi. Biroq, gender tengligi to‘liq ta‘minlanmadi, chunki ayollar ko‘pincha past maoshli va kam nufuzli sohalarda mehnat faoliyatini olib borishdi. Bu davrda qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari ayollar mehnatiga tayanib rivojlandi. Masalan, paxta yetishtirish va uni qayta ishlash kabi O‘zbekiston iqtisodiyotidagi

asosiy tarmoqlarda ayollar muhim rol o'ynagan. 70-yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti asosan agrar-sanoat xususiyatiga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida qoldi. Paxtachilik, ipakchilik va boshqa qishloq xo'jaligi sohalari ayollarning keng ishtirokisiz rivojlana olmasdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1970-yillarda O'zbekiston SSRda mehnatga layoqatli ayollarning qariyb 60-70% mehnat bozorida faol ishtirok etgan. Ayollar nafaqat qishloq xo'jaligida, balki yengil sanoat, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati kabi sohalarda ham faol ishlagan. Masalan, paxta dalalarida ayollar asosiy ishchi kuchi bo'lib, ular nafaqat paxta yig'im-terimida, balki uni qayta ishlash jarayonlarida ham ishtirok etgan. Shu bilan birga, shahar hududlarida ayollar to'qimachilik fabrikalarida, tikuvchilik korxonalarida va boshqa sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritgan. Bu jarayon ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, ko'pincha og'ir mehnat sharoitlari va past maoshlar ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

70-yillarda O'zbekiston SSRda ayollarning ta'lim sohasidagi ishtiroki sezilarli darajada oshdi. Sovet tuzumining umumiy ta'limni joriy etish siyosati tufayli ayollar o'rta va oliy ta'limga keng jalb qilindi. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlardagi oliy o'quv yurtlarida ayollar soni ortib bordi. Masalan, 1970-yillarda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) va boshqa muassasalarda ayol talabalar soni sezilarli darajada ko'paydi.

Ta'lim sohasidagi bu o'zgarishlar ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi faolligini oshirishga yordam berdi. Oliy ma'lumotli ayollar pedagogika, tibbiyot va muhandislik kabi sohalarda faoliyat yurita boshladi. Shu bilan birga, ayollar orasida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanganlar soni ham ortdi, bu esa ularning jamiyatdagi obro'sini oshirishga xizmat qildi.

Sovet tuzumida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi rag'batlantirildi. O'zbekiston SSRda xotin-qizlar mahalliy kengashlar, partiya tashkilotlari va jamoat tashkilotlarida faol ishtirok etdi. Masalan, Xotin-qizlar kengashi kabi tashkilotlar ayollarning ijtimoiy muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynadi. Bu tashkilotlar ayollarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, ularning huquqlarini himoya qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etdi. Biroq, ayollarning siyosiy faolligi ko'pincha rasmiy tuzum doirasida cheklanib qoldi. Siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ayollarning ta'siri cheklangan bo'lib, ular asosan ijrochi rollarda ishtirok etdi. Shunga qaramay, bu davrda ayollarning ijtimoiy tashkilotlarda faol ishtirok etishi ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga yordam berdi. Biroq, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga kommunistik mafkuraning talab va istaklari asosida belgilangan vazifalardan kelib chiqib yondoshildi.

O'zbekistonning an'anaviy jamiyatida ayollarning roli oila va uy xo'jaligi bilan cheklangan bo'lsa-da, sovet tuzumining "ayollarni ozod qilish" siyosati bu an'analarni o'zgartirishga xizmat qildi. 70-yillarga kelib, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki sezilarli darajada oshdi, ammo bu jarayon mahalliy an'analarga qarshi turdi. Masalan, "Hujum" kampaniyasining davomi sifatida ayollarning ijtimoiy hayotga keng jalb qilinishi ba'zi hududlarda qarshilikka uchradi. Sovet tuzumining ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari ayollarning mehnat bozorida va ta'lim sohasida faol ishtirok etishiga imkon yaratdi, ammo bu jarayon ba'zan majburiy tus oldi. Mahalliy an'analarni va sovet siyosatining o'zaro ziddiyati, shuningdek, og'ir mehnat sharoiti ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayollarning iqtisodiy faolligi ko'pincha past maoshli va og'ir mehnat sharoitlarida amalga oshirildi, bu esa ularning haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1980-yillarning oxirlarida kelganda, xalq xo'jaligida band bo'lgan ayollar ko'rsatkichi 44 foizni tashkil etgan bo'lsa, sanoat sohasida bu ko'rsatkich 50 foizni tashkil etgan. Xususan, yog'och ishlash chiqarish sanoatida, qora metallurgiya, ximiya va neft sanoati tarmoqlarida ishlovchilarning 30-35 foizi xotin-qizlar hissasiga to'g'ri kelgan. Tikuvchilik, to'quvchilik va ip gazlama korxonalarida esa ular barcha ishchilarning uchdan ikki qismini tashkil etgan[34]. Respublika qishloq xo'jaligida band bo'lgan xotin-qizlarning o'rtacha yillik soni 1926-yildagiga nisbatan 104 baravar ko'paygan. Kolxozchilar va sovxoz ishchilarining 50 foizdan ko'prog'ini xotin-qizlar tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda, sovet tuzumi davrida ayollarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki qat'iy chegaralar asosida, sovet hukumati ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilab berildi. Bu esa, ayollar zimmasiga doim ham uddalay olmaydigan og'ir mas'uliyat va vazifalarni yukladi. Ayniqsa, o'zbek ayollariga tabiatan xos bo'lgan oilaga sadoqat kabi xislatlardan kommunistik mafkura o'z manfaati yo'lida foydalanmoqchi bo'ldi. O'zbek ayollari o'zlarining mehnatsevarligi, shijoati va qobiliyatlari tufayli o'z iqtidorlarini namoyon etib, jamiyatda faol ishtirok etib bordi. Biroq bu ijtimoiy faollik asosan, ularning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi faoliyati bilan belgilab borildi.

Sovetlar xalq xo'jaligini rivojlantirishning besh yillik rejalarini o'zbek xotin-qizlarini ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish orqali ular mehnati hisobiga bajarishga intildi. Kommunistik mafkuraning hujumkor harakati natijasida xotin-qizlar ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilib, ularning ijtimoiy faolligi oshdi, jamiyat rivojida o'z o'rinlari borligini anglay boshladi. Biroq, ushbu ijtimoiy faollik oqibatida o'zbek xotin-qizlari milliy, an'anaviy turmush tarzidan begonalashdi. Mustabid tuzum manfaati mahalliy xotin-qizlarning ishlab chiqarishdagi imkoniyatini hisobga olmadi, ular og'ir jismoniy mehnat talab etadigan ishlab chiqarish turlariga jalb etildi. Xalq xo'jaligida 50% ni tashkil qilgan ayollar asosan, hayotning hamma jabhalarida erkak va ayolning tengligi uchun harakat oqibatida og'ir jismoniy mehnat talab qiladigan sohalarga jalb qilingan holda, ular mehnatga haq 25-30% kam to'lanardi. Bu esa mehnatni muhofaza qilishning norma va qonunlariga zid edi. Xotin-qizlar ilm olishda erkaklar bilan amalda teng huquqqa ega bo'lsalarda, ulardan mutaxassislar tayyorlashga e'tibor sust edi, ya'ni oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida mahalliy xotin-qizlardan mutaxassis tayyorlash ishiga kam e'tibor berildi. Xotin-qizlarning rahbarlik qobiliyatlariga ishonchsizlik ularning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qila olishiga to'siq bo'lgan. Xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilishda miqdor ko'rsatkichlarga intilishi salbiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib keldi. Sovet davri ayollarning organizmidagi o'ziga xos xususiyatlarni, yosh avlod tarbiyasidagi rolini e'tiborga olmadi. O'z-o'zini qayta ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan faoliyat kamsitildi. Ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishni xotin-qizlarning jamiyatda faollashuvining yagona yo'li deb e'tirof etildi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Ўзбекистонда оила, давлат ва жамият курилишида аёлларнинг роли ва гендер муаммолари. – Т.: Фан, 1999. – Б. 24 (The role of women and gender issues in the construction of family, state and society in Uzbekistan. - Т.: Science, 1999. - В. 24).
2. Хотин-қизлар масаласи: икки дунё, икки хил ёндошув. –Т.: Билим.1987. -26 б; Женщины мира. 1985. № 4. –С.38; Эргашходжаева Г.Э. Французская историография о проблемах эмансипации женщин Средней Азии в 20-годы (Литература 50-80-х годов). Автореф. дисс.... к.и.н. – Т.:ТашГУ.1996. – 22с. (The issue of women and girls: two worlds, two approaches. - Т.: Knowledge. 1987. -26 b; Genshchyny mira. 1985. No. 4. -S.38; Ergashkhodzhaeva G.E. French historiography on the problems of emancipation in the Middle East in the 20th century (Literature of the 50s and 80s). Autoref. diss.... k.i.n. - Т.: TashGU. 1996. - 22s)
3. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и постановлениях съездов.– Т.: Узбекистан,1968. – С.123. (The Communist Party of Uzbekistan and resolutions and post-reform congresses. – Т.: Uzbekistan, 1968. – P.123).
4. Ислам и женщины Востока (история и современность) / АН Узбекской ССР, Ин-т востоковедения им. Абу Райхана Беруни; отв. ред.:М. М. Хайруллаев. – Ташкент : Фан, 1990. –С.83. (- 252 с.) (Islam and women of the East (history and modernity) / Academy of Sciences of the Uzbek SSR, Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni; responsible editors: M. M. Khairullaev. - Tashkent: Fan, 1990. -. P. 83. (- 252 pages)
5. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. -Т.: Фан.1975. – С.196-212 (Aminova R.Kh. October and the solution of the women's issue in Uzbekistan. - Т.: Fan. 1975. - P. 196-212)

6. Sharopov A. O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma. 6 –nashr. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B. 343 (Sharopov A. Universal guide to the history of Uzbekistan. 6th edition. - Tashkent: Akademnashr, 2021. - P. 343.)

7. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ilmiy muharrir M.Jo'raev. Toshkent, "Sharq", 2000 (New history of Uzbekistan. Book 2. Uzbekistan during the Soviet colonial period. Scientific editor M. Joraev. Tashkent, "Sharq", 2000).

8. Qayta qurish yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. arxiv.uz. (Socio-economic life of Uzbekistan during the years of perestroika. arxiv.uz.)

9. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari. www.researchgate.net. (https://www.researchgate.net/publication/378530825_Yangi_O%27zbekistonda_xotin-qizlarning_ijtimoiy-iqtisodiy_faolligini_oshirish_yo%27nalishlari) Directions for increasing the socio-economic activity of women in the new Uzbekistan. www.researchgate.net. [(https://www.researchgate.net/publication/378530825_Yangi_O%27zbekistonda_xotin-qizlarning_ijtimoiy-iqtisodiy_faolligini_oshirish_yo%27nalari)]

10. Убайдуллаева Р.А. Хотин – қизларнинг социал-иқтисодий ривожланишга қўшаётган ҳиссаси. – Тошкент, 1987. –Б.10. (Ubaidullaeva R.A. Wife - the contribution of girls to socio-economic development. - Tashkent, 1987. -P.10.)

11. Жўраева Н.Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20 -80 йиллари мисолида): ўқув қўлланма/ - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. – 264 б. (Juraeva N. Attitudes towards women in Uzbekistan (on the example of the 20s-80s of the XX century): textbook/ - Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2013. - 264 p.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000